

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING DAVLAT SUG'URTASIGA OID HUQUQI YUZASIDAN AYRIM FIKR VA MULOHAZALAR

Radjapova Lola

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Jinoyat-protsessual huquqi kafedrası katta o'qituvchisi, yu.f.b.f.d.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14744666>

Ijtimoiy himoya – jamiyat a'zolarining ertangi kunga ishonchini uyg'otadigan, ishchi kuchining sifatini yaxshilaydigan, passiv hayot tarzidan faollikka undaydigan o'ziga xos qadriyat bo'lib, davlatda siyosiy barqarorlik, iqtisodiy farovonlikni ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi[1].

O'zbekiston zaminida ko'pgina sohalarda, xususan "ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy masalalarda davlat kuchli tashabbuskor, g'amxo'r va himoyachi bo'lib kelgan va bu ijtimoiy siyosat hozirda ham davom etmoqda. Jamiyatning ehtiyojmand a'zolari to'g'risida qayg'urish hissi, mehr-muruvvat, xayr-saxovat o'zbek xalqining, umuman barcha qardosh xalqlarining azaliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi"[2].

Qonunchiligimizga muvofiq, ichki ishlar organlari xodimlari uchun juda ko'p imkoniyatlar yaratilyapti, eng yaxshi ijtimoiy kafolatlar belgilab qo'yilgan, hammasi aniq ravon ko'rsatilib, tizimlashtirilgan bo'lsada amalda tatbiq qilinishida sustkashliklar yo'l qo'yilmoqda. Bunday muammolarni xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida tan jarohati olgan xodimlarga sug'urta va bir martalik to'lanadigan nafaqa to'lash ijtimoiy kafolat turida ham ko'rishimiz mumkin.

"Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq "ichki ishlar organlari xodimlari xizmat majburiyatlarini bajarishda tan jarohati olganligi uchun nafaqani to'lash nazarda tutilmagan bo'lib, ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish yuzasidan chiqarilgan qonun hujjatlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda vazirlik va idoralarning mablag'lari, budjet mablag'i hisobidan amalga oshirilishi qonunchilikda belgilangan"[3]. Shu bois bu sharoitda ijtimoiy sug'urta nafaqalari xususida fikr yuritilmaydi.

Aksincha, imtiyoz va moddiy jihatdan undanda yaxshiroq bo'lgan yana boshqa turdagi nafaqani olish huquqi yuzaga keladi. Bu –xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida tan jarohati olgan xodimlarga yoki halok bo'lgan xodimlarning oila a'zolariga tayinlanadigan va to'lanadigan bir martalik nafaqadir. Nafaqa bir martalik to'lov bo'lib, ijtimoiy sug'urtadan emas, balki davlat budjetidan moliyalashtiriladi. Masalan, xizmat burchini bajarish chog'ida vafot etgan 18 nafar va xizmat vaqtida tan jaroxati olgan 111 nafar harbiy xizmatchi va xodimlarining oilalariga 2023 yilning 10 oyida jami 16 mlrd so'mdan ortiq miqdorda bir martalik nafaqa pullari to'lab berilgan[4].

Darhaqiqat, xizmat majburiyatlarini bajarishda og'ir tan jarohati olgan yoki halok bo'lgan xodimning oilasiga marhumning asosiy egallagan lavozimi bo'yicha maoshi va maxsus (harbiy) unvon maoshi yig'indisining 150 barobarigacha miqdorda bir martalik nafaqa beriladi. Xizmat majburiyatlarini bajarishda tan jarohati olgan xodimlarga esa:

- og'ir tan jarohatida – pul ta'minoti okladining 50 barobari;
- o'rtacha og'ir tan jarohatida - pul ta'minoti okladining 20 barobari miqdorida nafaqa tayinlanadi.
- yengil tan jarohati uchun esa nafaqa tayinlanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2022-yil 1-oktabrdagi buyrug'i bilan tasdiqlangan yo'riqnomaga asosan ichki ishlar organlari tizimida hozirgi kunda ushbu nafaqalar davlat majburiy sug'urtasi bo'yicha berilishi lozim bo'lgan sug'urta pulidan tashqari alohida ravishda budjet hisobidan to'lab beriladi. Ya'ni, bu holatda ijtimoiy sug'urta yoki bir martalik nafaqa kabi tushunchalardan tashqari davlat sug'urtasining boshqa turlari borligini qayd etishimiz lozim.

Binobarin, mustaqillikning dastlabki yillarida sug'urta bozorini shakllantirish va sug'urtaga oid munosabatlar huquqiy jihatdan ilk bor 1993-yil 6-mayda qabul qilingan "Sug'urta to'g'risida"gi Qonunda tartibga solinayotgan vaqtda, sug'urtaning ixtiyoriy va majburiy turlari nazarda tutildi. Shu asosda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvarda "Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi to'g'risida"[5] gi 38-son qarori qabul qilinib, 1994-yilning 1-yanvaridan boshlab harbiy xizmatchilarning, shu o'rinda ichki ishlar organlari tizimida xizmat qiluvchi xodimlar ham xizmat o'tash davrida halok bo'lish (vafot etish), jarohatlanish (kontuziya), kasallanish hodisalaridan davlat majburiy sug'urtasi joriy etildi.

Sug'urta kompaniyasi yuqoridagi qarorda ko'rsatilgan quyidagi sug'urta summasini to'laydilar:

a) sug'urtalangan shaxs xizmatni o'tash davrida halok bo'lganda yoki xizmatdan bo'shagandan so'ng bir yil mobaynida olingan jarohat (kontuziya), kasallanish natijasida vafot etganda - uning merosxo'rlariga (merosxo'rlik huquqini tasdiqlaydigan guvohnoma taqdim etilgan taqdirda) respublikada belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 7 yilligi miqdorida;

b) sug'urtalanagan shaxs xizmatdan bo'shagandan keyin bir yil mobaynida unga xizmatni o'tash bilan bog'liq bo'lgan nogironlik belgilanganda: I guruh nogironiga - yuqoridagi "a" kichik badda nazarda tutilgan to'lovlarning 75%, II guruh nogironiga - 50%, III guruh nogironiga - 30% miqdorida;

v) sug'urtalangan shaxs xizmatni o'tash davrida og'ir jarohatlanganda - "a" kichik badda nazarda tutilgan to'lovlarning 20% va yengil jarohatlanganda 10 % miqdorida sug'urta puli to'laydilar. O'rtacha og'ir tan jarohati esa nazarda tutilmagan. Lekin ichki ishlar organlari xodimlari o'rtasida asosan o'rtacha og'ir tan jarohati olish holatlari ko'proq uchray turadi.

Huquqshunos olimlardan A.Lemexovning qayd etishicha, Rossiya Federatsiyasida ham "Sug'urta to'g'risida"gi qonun qabul qilinguniga qadar mavjud muammolar bo'yicha amaldagi nizomlarda yechimlar to'liq berilmagan. 2002-yilda sug'urta tizimi isloh qilinib, hatto davlat xizmatchilarning mulkiy sug'urtasi masalalariga e'tibor qaratilgan[6].

Sug'urta tizimida muammolar nafaqat O'zbekistonda, huquqshunos olim A.Chorshanbievning[7] qayd etishicha, Tojikistonda ham muammolar mavjud. Muallif harbiy xizmatchilarga shikast yetkazilganda sug'urta pulidan tashqari nafaqalar berilishi lozimligini, ushbu masalada alohida qonun qabul qilishni juda o'rinli ta'kidlagan. Masalan, Rossiyada bo'lgani kabi.

Ayrim Yevropa davlatlari va AQShda, shuningdek ba'zi bir MDH mamlakatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon)da sug'urta masalalari alohida maxsus qonunlar bilan huquqiy tartibga solingan.

Masalan, sug'urtaga oid 1998-yildagi Rossiya Federal qonuni, 2004-yildagi Qirg'iziston

qonuni yoki 1997-yilgi Ozarbayjon Respublikasining qonunlarida sug'urta munosabatlarining obyekti, subyektlari, sug'urta bozoridagi ochiq raqobat muhiti, sug'urta summalarining aniq miqdorlariga oid e'tiborga molik qoidalar bor. Xususan, harbiy xizmatchilar, militsiya xodimlarining hayoti va sog'lig'ini sug'urtalashga tegishli litsenziyaga ega bo'lgan, Rossiya qonunchiligi bo'yicha shuningdek 2 yillik ish tajribasiga ega har qanday sug'urta bozori kompaniyasi da'vogarlik qilishi mumkin. Ya'ni sohada monopoliya yo'q.

Qirg'iziston qonuni bo'yicha agar sug'urta kompaniyalari 15 kunlik muddatda sug'urta pulini to'lab bermasa, qo'shimcha ravishda moliyaviy jarimaga tortilishi mumkin[8].

AQSh sug'urta tizimida esa harbiy xizmatchilar kabi politsiya xodimlarining oila a'zolari ham sug'urtalanadilar. Sug'urta pensiyaga chiqquncha (60 yosh) kafolatlanib, 400 ming dollargacha to'lov berilishi ma'lum qilingan[9].

Yuqoridagi davlatlar qonunining e'tiborga molik taraflaridan yana bir jihati shundaki, sug'urta pullarining miqdori eng kam oylik ish haqi yoki bazaviy hisoblash miqdoriga emas, balki xodimning lavozim maoshi va unvon pulidan kelib chiqib karralab yoki aniq summalarda hisob-kitob qilinadi. Masalan, Rossiyada vafot etgan politsiya xodimining oilasiga 3 mln.rubl berilsa[10], Ozarbayjonda esa 11 ming manat belgilangan, Qirg'iziston qonunchiligi bo'yicha esa pul ta'minoti okladining 200 baravari miqdorida to'lab beriladi. Hatto, moliyalashtirish kechiktirilgan har bir kun uchun 1% penya ham o'rnatilgan.

Yuqoridagi xorijiy qonunchilikdagi sug'urta munosabatlarida davlat xaridlari tizimining o'rnatilganligi, bu jarayonda politsiyaga oid progressiv me'yorlardan milliy qonunchiligimizni kelgusida takomillashtirishda foydalansak, ichki ishlar organlari xodimlarini sug'urtalash tizimini yaxshilash bo'yicha ijobiy ahamiyat kasb etadi, deb o'ylaymiz.

Chunki, bizda sug'urta shartnomasida fors-major oydinlashtirilmagan[11], xodimlarning aksariyati sug'urtadan boxabar bo'lishsada, undan foydalanish samaradorligi juda past.

Endi sug'urta mexanizmiga to'xtaladigan bo'lsak, tartib bo'yicha bizda sug'urta voqeasi sodir etilgan kundan 3 yildan keyin sug'urta to'lovlari bo'yicha berilgan arizalar ko'rib chiqilmaydi. Arizalar besh bank kuni ichida ko'rib chiqilib, sug'urta to'lovi to'lanadi. Agar rad etilsa 15 kun muddatda sug'urtalangan shaxsga yozma ravishda sababi ko'rsatilgan holda hujjatlar qaytarilishi kerak. Lekin amaliyotda bu qoidalarga doim ham rioya etilmaydi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlar ham buni tasdiqlaydi. Xususan, "Xizmatda jarohat olganmisiz va bu holatda "O'zbek-invest" sug'urta kompaniyasidan sug'urta puli olinganmi" degan savolga aksariyat respondentlar (17%) jarohat bo'lmaganini qayd etishsada, so'rovnomada qatnashuvchilarning ayrimlari tomonidan (10%) "travma bo'lganda o'zimni aybdor qilishadi va to'lashmaydi", (54%) "travma bo'lgan, lekin hech qanday pul to'lashmagan" degan javob berilgan. Chunki mazkur bo'linmalar umuman jonbozlik ko'rsatmaydi, sug'urta masalasida yuborilayotgan yig'majild hujjatlari arzimagan bahonalar bilan qaytarilishini amaliyot ko'rsatib kelmoqda.

Bizning fikrimizcha, xodim tan jarohati olganligi bo'yicha xizmat tekshiruvi o'tkazilib, uning aybdorlik yoki aybsizlik masalasi hal qilinayotgan bo'lsada, bu masala sug'urta to'loviga ta'sir etmasligi lozim.

Sh.M.Gaziyevning "asosiy ishlar qatorida 2022-2025-yillarda harbiy xizmatchilar sug'urtasini institutsional rivojlantirishimiz (masalan, harbiy xizmatchilar sug'urta qilingan bo'lsa, ularning oilalari esa sug'urta qilinmaydi yoki harbiy xizmatchilarning mol-mulkiga yetkazilgan zarar sug'urtalanmagan), ixtiyoriy sug'urtani rag'batlantirish, sug'urtaning yangi

turlari - tibbiy sug'urta, mulkiy sug'urtani qo'llash, harbiy xizmatchilarni sug'urtalash tizimidagi monopoliyani yo'qotib, "O'zbekinvest"dan tashqari yana boshqa sug'urta kompaniyalarning ham ishtirokiga yo'l berish, sug'urtalash huquqini qo'lga kiritish bo'yicha davlat xaridlarini elektron tarzda savdolarga chiqarish, harbiy xizmatchilarning sug'urta ta'minotini olish bo'yicha huquqlari himoyasini kuchaytirish, ularning sug'urta savodxonligini va sug'urtaga bo'lgan ishonchini oshirish kelgusida qilinishi lozim bo'lgan ishlar sirasidandir"[12] degan fikriga qo'shilgan holda nafaqat harbiylarning balki ichki ishlar organlari xodimlarining ham sug'urtalash tizimini rivojlantirish lozim deb o'ylaymiz.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, tibbiy normativlarda, shuningdek jinoyat qonunchiligida ham tan jarohatlarining darajalari orasida o'rtacha og'irlikdagi tan jarohatlari e'tirof etiladi, amaliyotda ham xodimlarda aynan o'rtacha og'ir tan jarohatlari ko'p uchrab turadi. Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 26 yanvardagi 38-son qarorning 2-bandi "g" xatboshini o'zgartirib, og'ir jarohat uchun (20%) va yengil jarohat uchun (10%) to'lovlar orasiga "o'rtacha og'ir jarohat uchun 15%" deb kiritish taklif etiladi.

References:

1. Shoimov Q. Kuchli ijtimoiy himoya - O'zbekistonda islohotlarning ustuvor yo'nalishi sifatida // Elektron manba: gazeta.uz. (murojaat vaqti: 03.12.2024).
2. Rasulov M. Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza // Elektron manba: https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi (murojaat vaqti: 03.12.2024).
3. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2002-yil 1-apreldagi "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi 21-son buyrug'i // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/357102> (murojaat vaqti: 03.12.2024).
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti "Ijtimoiy himoya" bo'limida mavjud bo'lgan o'rganilgan ish hujjatlardan.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi "Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi to'g'risida"gi 38-son Qarori // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/632042>(murojaat vaqti: 10.12.2024).
6. Лемехов А.А. Обязательное государственное страхование рисков военнослужащих: автореф. дисс. канд. экон. наук. Санкт-Петербург. 2001 г. – С.25 // Elektron manba: <https://www.dissercat.com> (murojaat vaqti: 10.12.2024).
7. Чоршанбиев А. Возмещение вреда, причиненного жизни или здоровью военнослужащих: автореф.дисс.канд.юрид.наук. Душанбе. 2009 г. – С.4 // Elektron manba: <https://www.dissercat.com/content/vozmeshchenie-vreda-prichinennogo-zhizni-ili-zdorovyu-voennosluzhashchikh> (murojaat vaqti: 10.12.2024).
8. Internet manba: www.insurance.kg. (murojaat vaqti: 14.12.2024).
9. Internet manba: <https://www.nationalguard.com/tools/life-insurance> <https://dpscareers.com/faq/> (murojaat vaqti: 14.12.2024).
10. Федеральный закон Российской Федерации от 07 февраля 2011г. N 3-ФЗ "О

полиции” // Elektron manba: <https://www.consultant.ru> (murojaat vaqti: 14.12.2024).

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 26-yanvardagi “Harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslarning, oddiy askarlar hamda boshliqlar tarkibiga kiruvchi shaxslarning davlat majburiy shaxsiy sug'urtasi to'g'risida”gi 38-son Qarori // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/632042>(murojaat vaqti: 03.12.2024).

12. Gaziyeu Sh.M. Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari ijtimoiy - huquqiy himoyasini takomillashtirish: yurid.fan.dok.diss.avtoref. – O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti, 2022.